

SINTAKTIK PARADIGMA

Turniyazova Ruxsora Behzod qizi

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

E-mail: behzodsamdchti@gmail.com

Annotatsiya. Maqlada paradigma va paradigmatic munosabat tushunchalarining keng qamroviligi haqida so‘z boradi. Boshqacha aytganda, mazkur tushunchalarning faqat til birliklari uchungina emas, balki nutq birliklari uchun ham ahamiyatli ekanligi ta’riflanadi. Buni hozirgi tilshunosligimizda samarali tadqiq etilayotgan sintaktik paradigmada hodisasida ko‘rishiimiz mumkinligi dalillanadi.

Kalit so‘zlar: paradigm, paradigmatic munosabat, sintaktik paradigm, kombinator bog‘lanish.

Аннотация. В статье говорится о комплексности понятий парадигма и парадигматическое отношение. Другими словами, определяется, что эти понятия важны не только для языковых единиц, но и для речевых единиц. Мы можем увидеть это в явлении синтаксической парадигмы, которое эффективно изучается в нашей современной лингвистике.

Ключевые слова: парадигма, парадигматическое отношение, синтаксическая парадигма, комбинаторная связь.

Abstract. The article talks about the complexity of the concepts of paradigm and paradigmatic relationship. In other words, it is determined that these concepts are important not only for linguistic units, but also for speech units. We can see this in the phenomenon of syntactic paradigm, which is effectively studied in our modern linguistics.

Key words: paradigm, paradigmatic relation, syntactic paradigm, combinatorial connection.

Kontsellyatsiya hodisasiga ko‘ra til birliklari o‘rtasida erkin bog‘lanish nazarda tutilar ekan, bunda distributiv muhit ham ana shu erkinlik doirasida bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, til birliklarining o‘zaro munosabati qanday hodisa doirasida bo‘lishidan qat’i nazar, ular o‘rtasida turlicha kombinator bog‘lanish vujudga keladi. M.M.Makovskiyning ta’kidlashiga ko‘ra, har bir tilning o‘ziga xos xarakteri, mohiyatini o‘rganishda alohida til birliklarining distributiv xususiyatlarini tadqiqi qilish va ularning o‘zaro bog‘lanishida mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zotan, kombinator bog‘lanish tilning barcha sathlariga- eng kichik sathlaridan tortib (fonema, morfema, so‘z) eng katta nutq sathlarining (gap, murakkab sintaktik qurilma va h.k.) barchasiga birday dahldordir. Bunda sintagmatik, paradigmatic va ierarxik (pog‘onali) munosabatlarining barchasi to‘liq qamrab olinadi[1.6-7].

Darhaqiqat, til birliklari va nutq birliklarining amalda qo‘llanilishida so‘zlovchi voqe bo‘lgan til nutq vaziyatlariga mos holda turli xil kombinatsiyalardan foydalanadi. V.M.Solntsevning qayd etishiga ko‘ra, kombinator bog‘lanish til birligining umumiy va zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi. Bunda til birliklarining ierarxik va gorizontal munosabatlari ushbu bog‘lanishni voqelantiruvchi vositalar sanaladi[2.258-259]. Mazkur fikrga to‘liq qo‘shilgan holda shuni ham aytmoqchimizki, kombinator bog‘lanishga vosita bo‘luvchi lingvitsik vositalar jumlasiga paradigmatic munosabat ham kiradi. Chunki til birliklarining va nutq birliklarining vertikal reja asosidagi munosabatlari doirasida ham turlicha kombinatsiyalar vujudga keladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, aksariyat tadqiqot ishlarida paradigmatic munosabatni til hodisasi deb, sintagmatik munosabatni esa nutq hodisasi deb izohlanadi. Biroq bizningcha, bunday vaziyat izohtalab ko‘rinadi. Zotan, ularning har ikkisi ham til birliklari vositasida o‘z ifodasini topadi. Buni F.de Sossyurning o‘zi ham qayd etgan edi. Unga ko‘ra, mazkur munosabatlarning har biri til birliklarining faoliyat ko‘rsatishi uchun xizmat qiladi. Ammo bu bilan biz paradigmatic va sintagmatik munosabatlar nutqqa dahldor emas demoqchi emasmiz. Shu narsa xarakterlik, nutq ham o‘ziga xos sitsemani taqozo etadi. Shunday ekan, bunda ham nutq birliklarining paradigmatic va sintagmatik munosabatlari o‘z o‘rniga egadir. Buning dalilini nutq elementlarining sintagmatik bog‘lanishi va sintaktik paradigmatica hodisalarida bemalol kuzata olamiz.

Til sistemasida paradigmatic munosabat til birliklarining nutqqa ko‘chirilmaguncha bo‘lgan holati bilan bog‘liq bo‘ladi[2.65]. Nutqda voqelanayotgan paradigmatic munosabat esa, amalda qo‘llanayotgan so‘zlar bilan uzviy bog‘lanadi. Ayni paytda paradigmatic munosabatni nutqda qo‘llanayotgan so‘z birikmalari, mustaqil gaplar, gapdan katta birliklarning (murakkab sintaktik qurilmalarning) assotsiativ munosabatida ko‘ra olamiz.

Biz munosabat terminidan foydalanmoqdamiz. Bu tushuncha keng ma’noli bo‘lib, u paradigmatic bog‘lanishni ham, sintagmatik bog‘lanishni ham qamrab oladi. Paradigmatic va sintagmatik munosabatlarning har biri til sitsemasi ichida mikro sitsemani tashkil etadi

Buning dalili sifatida fonemalar, morfemalar, so‘zlar makroparadigmalarini ko‘rsatish mumkin. Morfema va so‘zlar sathlarida esa, fonemalar mikroparadigmasi, morfemalar mikroparadigmalarini qayd etamiz. Ayni paytda morfemalar va so‘zlarda fonemalarning, so‘z sathida esa, fonemalar va morfemalarning mikrosintagmatik bog‘lanishlari ham voqelanadi. Bu hodisalarning barchasi munosabat tushunchasi doirasida yuz beradi.

R.Y.Kobrin paradigmatika tushunchasi paradigma termini bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi va bu termin ikki xil ma’noda qo‘llanilishini eslatib o‘tadi: 1. Til sistemasi va strukturasi qolipiga mos tarzda ma’lum bir invariant doirasida shakllanishi mumkin bo‘lgan variantlar. Bu variantlardan biri nutq jarayonida so‘zlovchi tomonidan tanlanadi. 2. Nutq zanjirida til sitsemasi birliklarning tasniflanishi[3.31].

R.Y.Kobrin ko‘rsatib bergen paradigma terminining birinchi ma’nosidan kichik paradigmatic munosabat talqinini berishda ya’ni til birliklarining paradigmatic bog‘lanishni o‘rganishda foydalanish, ikkinchi ma’nosidan esa, nutq birliklari, jumlalar, gapning, murakkab sintaktik qurilmalarning paradigmatic munosabatlarini o‘rganishda foydalanish mumkin. I.V.Preorova til birliklarining paradigmatic va sintagmatik munosabatlari haqida fikr bildirganida, ular sistema ichida ham shu munosabatlar doirasida bo‘lishini ta’kidlaydi[4.185]. Bizningcha, bu o‘rinda muayyan chekinishga borish lozim ko‘rinadi. Chunki til birliklaridan fonemalarni olsak, ular o‘zlarining makroparadigmalarini ichida faqat paradigmatic munosabatda bo‘lishi izoh talab qilmaydi. Boshqacha aytganda, bunda semantik munosbatni ko‘rib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, fonemalar tilning fonetik sathida sintagmatik munosabatga kirisha olmaydi. Ularning sintagmatik bog‘lanishi morfematik va so‘z sathlarida shakllanadi.

Til birliklari nutqda (amalda) qo‘llanilmaguncha o‘zlarining sathlari doirasida muayyan paradigmalar holatida mavjud bo‘ladi. Biroq fonematik sathdan boshqa sathlar ichida sintagmatik munosabat ham kuzatiladi. Masalan, morfematik sathda fonemalarning sintagmatik bog‘lanishi fikrimiz dalili bo‘la oladi. Biroq, tarzdagi sintagmatik bog‘lanish statik xarakret kasb etadi. Boshqacha aytganda, bunday sintagmatik munosabat nutqda emas, balki til sistemasi ichida vujudga keladi. Ana shu bois bunday munosabatni aktual holatlari deya olmaymiz, Biroq bu bilan biz sintagmatik munosbat faqat nutqqa tegishli demoqchi emasmiz. Ko‘rib o‘tganimiz singari sintagmatik munosabat statik xarakterli(jonsiz) bo‘lsa-da, tilga ham taalluqlidir.

Tilning fonematik sathi birliklari (fonemalar) bir o'lchamli bo'lganligi uchun ya'ni ularda faqat ifodalovchi belgisi bo'lgani sababli ular o'zlarining ichki sistemalari doirasida faqat paradigmatic munosabatda bo'ladi. Bu fonemalarning makroparadigmasi doirasida ham, mikroparadigmasi sathida ham kuzata olamiz. Biroq fonematik sathdan boshqa kattaroq sathlar birliklari ichki o'lchamli bo'lganligi uchun, ya'ni ularning ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlari ham mavjud bo'lgani bois, bu o'rinda ichki sintagmatik bog'lanishni ham qayd eta olamiz. Ammo ayni paytda shuni ham aytish lozimki, morfematik sath birliklari morfemalar ham so'z sathi birliklari, so'zlar ham o'z sathlari doirasida o'zaro bog'lana olmaydi. Masalan, morfematik sathda bir morfema ikkinchisi bilan munosabatga kira olmaydi. Bu o'rinda morfematik sath birliklari ham so'z sathi birliklari ham o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi.

Til birliklari ichida so'zning o'rni o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning lingvitsik mavqeい integrativ (jamlovchi) xususiyati bilan o'lchanadi, zotan, u fonema va morfemalarning qo'llanilishi uchun obyekt sanaladi. Bu esa so'zning sistema ichida mikrosistema ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu mikrosistema doirasida fonemalar paradigmasi va morfemalar paradigmاسini kuzata olamiz. Bunga bir so'z sathida qatnashayotgan fonemalarning unli va undoshlardan iborat paradigmasi, shuningdek, o'zak va affikslarni taqazo etuvchi morfemalar paradigmasi misol bo'lishi mumkin. So'zning qo'llanish obyekti, albatta, gap hisoblanadi. Bu jihatdan u gapga integrativ maqom beradi. Gap tarkibida qatnashayotgan so'zlar endi o'zaro paradigmatic munosabat tashkil etadi. Mazkur paradigmani makroparadigma deya olamiz. Chunki so'zlar turli turkumlarga tegishli bo'ladi. Ana shu turkumlarning o'zлари endi makro paradigmалarni hosil qiladi. Masalan: ot paradigmasi, fe'l paradigmasi, sifat paradigmasi va h.k. Bular umumiyl masalaning bir tomonini tashkil etadi. Uning ikkinchi tomonini esa, so'z doirasida yohud gap sathida sintagmatik munosabatning shakllanishi taqozo qiladi. Bu juda muhimdir. Chunki til sitsemasining voqeligi ko'p jihatdan ana shu narsa bilan bog'liqidir. Taniqli tilshunos L.Tener ta'biri bilan aytganda, so'zning vertikal (paradigmatik) va gorizontal (sintagmatik) rejalar asosidagi munosabatini o'rganish struktur sintaksisning yetakchi masalasi sanaladi[5.178-118]. Ta'kidlash joizki, so'z til sistemasining asosiy birligini taqozo qiladi. Uning vertikal rejaga va gorizontal rejalariga ko'ra o'rganilishi bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da,

o‘ta murakkab hodisa sanaladi. Zotan, so‘zning paradigmatic munosabati ham, sintagmatik munosabati ham tilning muayyan sistemasini tashkil qilishi va mazkur sistemaning nutqda qo‘llanilishi bilan uzviy bog‘lanadi[6.87]. Boshqacha aytganda, so‘z tilning leksik sistemasining asosiy birligi sanaladi va ana shu bois uning paradigmatic mohiyati ham, sintagmatik salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. L.A.Novikov ta’biri bilan aytganda, til birliklarining leksin sistemadagi o‘rnini aniqlash – bu ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sintagmatik va paradigmatic xususiyatlarini ochib berish demakdir[7.191].

Shuni ham aytish lozimki, tilshunoslik adabiyotlarida morfologik paradigma tushunchasi bilan bir qatorda leksik paradigma tushunchasi ham qo‘llanilayotganini ko‘ramiz. Ammo bizningcha, morfologik paradigma tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, leksik paradigma tushunchasini ham o‘z mazmuniga ko‘ra taqozo eta oladi. Nazarimizda paradigma tushunchasi bu o‘rinda so‘larning morfologik shakllarini ham qamrab oladi. Shu bois morfologik paradigma terminidan foydalanish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Leksik paradigma terminidan esa tilimiz lug‘at boyligidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda foydalanish mumkin.

Shunday qilib, til birliklarining paradigmatic munosabatini o‘rganish til sitsemasining ichki strukturasini mukammal bilishimiz uchun imkon yaratadi, degan xulosaga kela olamiz. Biroq paradigma va paradigmatic munosabat tushunchalari keng qamrovlidir. Boshqacha aytganda, mazkur tushunchalar faqat til birliklari uchungina emas, balki nutq birliklari uchun ham ahamiyatlidir. Buni hozirgi tilshunosligimizda samarali tadqiq etilayotgan sintaktik paradigma hodisasida ko‘rishiimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Маковский М.М. Лингвистическая комбинаторика. -М., 1988.
2. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. -М., 1971.
3. Кобрин Р.Ю. Языковые отношения и базовые единицы языка//Вопросы языкознания, 1987, №5.
4. Приорова И.В. Синтагматическая реализация несклоняемых имен//Русский язык: исторические судьбы и современность. Материалы III Международного конгресса исследователей русского языка. -М., 2007.
5. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. -М., 1988.
6. Краснов Ф.А. Парадигматические и синтагматические аспекты фразеологии//вестник КРСУ, 2003, №2.
7. Новиков Л.А. Лексикология//Современный русский язык. -М., 1989.